



Vebsayt: <https://involta.uz/>

OLIIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINI MILLIY-MA'NAVIY SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Mavlonov Ulug'bek Tursunaliyevich

Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi

Ro'ziyeva Munisaxon Shuhrat qizi

Qarshi davlat universiteti talabasi

Anotatsiya

Ushbu maqolada yuqori malakali kadrlar tayyorlash borasida oliy ta'lim tizimi oldida bugungi kunda o'z yechimini kutayotgan bir qator dolzarb muammo va kamchiliklarni o'rganib chiqish, oliy o'quv yurtlarida talabalarni milliy-ma'naviy salohiyatini rivojlantirish va ta'lim sifatini yuksaltirish, zamon talablariga mos bo'lgan zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va dars o'tish, yoshlarni bilim salohiyatini rivojlantirishiga qaratilgan.

Kalit so'zlar: milliy g'oya, ta'lim jarayoni, texnologiyalar, milliy ma'naviy, rivojlantirish.

Аннотация

В данной статье рассматривается ряд актуальных проблем и недостатков, стоящих перед системой высшего образования в области подготовки высококвалифицированных кадров, развития национального и духовного потенциала обучающихся в высшей школе и повышения качества образования. Использование современных технологий и методов обучения, отвечающие требованиям требований, направлена на развитие

ПОЗНАВАТЕЛЬНОГО ПОТЕНЦИАЛА МОЛОДЕЖИ.

Ключевые слова: национальная идея, образовательный процесс, технология, национальная духовность, развитие.

Annotation

This article is devoted to the study of a number of urgent problems and shortcomings facing the higher education system today in the field of training highly qualified personnel, the development of national and spiritual potential of students in higher educational institutions and improving the quality of education, the use and training of modern technologies that meet modern requirements, the development of cognitive potential of youth.

Keywords: national idea, educational process, technologies, national culture, development.

Bugungi kunda yurtimizda milliy qadriyatlarimiz va ma'naviy salohiyatni yaxshilashga qaratilgan ishlar yo'lga qo'yilmoqda. Bunga oliy ta'lim muassasalarida o'tkazilayotgan milliy-ma'naviy salohiyat aks etgan ma'naviyat darslari ko'payishi asos bo'la oladi. Mamlakatimizning ta'lim tizimiga qaratilgan islohotlari oliy ta'lim dargohlarini ko'payishiga turtki bo'lmoqda. Hozirda respublikada 114 ta oliy ta'lim muassasasi mavjud bo'lib, ulardan 93 tasi mahalliy hamda 21 tasi xorijiy oliy ta'lim muassasasi va ularning filiallari hisoblanadi. Jumladan, so'nggi 3 yilda yangi 6 ta oliy ta'lim muassasasi, 17 ta filial va 14 ta xorijiy oliy ta'lim muassasasi filiali tashkil etildi.¹ Kadrlar buyurtmachilari takliflari asosida oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga 329 ta ta'lim yo'nalishi va 582 ta magistratura mutaxassisligi kiritildi. Yuqori malakali kadrlar tayyorlash borasida oliy ta'lim tizimi oldida bugungi kunda o'z yechimini kutayotgan bir qator dolzarb muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi oliy ta'lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni

¹ Prezident Sh. M. Mirziyoyev «2018-2020 yillarda O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha chora tadbirlari dasturi»

rivojlantirish maqsadida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yilning 11-iyuldagi PQ-4391-son “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi [qarori](#) ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan.

² Konsepsiya O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalishlari, vazifalari, o‘rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda sohaga oid dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi. Oliy o‘quv yurtlarida talabalarni milliy-ma’naviy salohiyatini rivojlantirish va ta’lim sifatini yuksaltirish, zamon talablariga mos bo‘lgan zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va dars o‘tish, yoshlarni bilim salohiyatini rivojlantirish maqsadida keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Eng e’tiborli tomoni shundaki, qarorda bugungi oliy ta’limning ahvoli, davlat va jamiyat qurulishidagi o‘rni ochiq-oydin ko‘rsatib berilgan. Va shu kamchiliklarni bartaraf etish qarorda bandma-band belgilangan. Ma’naviyat millatni taraqqiyotga yetaklovchi, davlatning qudratini oshiruvchi muhim omil sanaladi.

1. Talabalarni adabiyot, san’at va sportga, sog‘lom turmush tarziga jalb etish, ularda estetik did va kasbiy etika, axborot tahlili madaniyatini shakllantirish, Vatanga muhabbat va uning taqdiriga daxldorlik, fidoyilik hissini qaror toptirish bo‘yicha ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar rejasini ishlab chiqish va barcha oliy ta’lim muassasalarida mazkur chora-tadbirlar rejasi ijrosini ta’minlash.

2. Talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni amaliy kasb egasi sifatida tayyorlash ishlarini tashkil qilish va tizimli ravishda olib borish va axloqiy tarbiyaning tub mohiyati hozirgi ijtimoiy shart-sharoitda mamlakatimiz istiqboli va istiqloli to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish, o‘zligini anglash, Vatani va xalqining nimaga qodirligini, o‘z qadr - qimmatini bilish, bor imkoniyatini Vatan, xalq ravnaqi yo‘lida

halol mehnat qilish, yuksak g‘oya va kashfiyotlarni to‘g‘ri yo‘naltirilish, bu yo‘lda fidoyi bo‘lishdan iboratdir.³ Birinchi prezidentimiz I. Karimovning “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch” asarining xar bir satrlari aynana ma’naviy ahloqiy tarbiyaning butun mazmun va

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi PQ-4391-son “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori.

³ O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” kitobidan

mohiyatini ifoda etgan desak ayni haqiqatdir. Oliy ta'lim muassasalari talabalarini yanada bilim salohiyatini rivojlantirish uchun malakali mutaxassislar bilan ishlashi va eng so'ngi texnologik apparatlar, texnologiyalarda dars olib borish kerak. Shu jumladan o'tilgan darslarni talabalar amalda qo'llay olishi ham kerak bo'ladi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ma'naviy-ahloqiy tarbiyaning tub ildizlari va mazmuni haqida "Ma'naviyat tarbiyaning eng ta'sirchan quroli ekan, undan oqilona foydalanish, bolalarimizni vatanparvarlik, rostgo'ylik, xalqsevarlikka o'rgatish kerak bo'ladi" deb takidlagan edi. Oliy ta'lim muassasalari talabalarini ta'lim tarbiya tizimida milliy g'oyani rivojlantirish imkoniyatlarini yanada kuchaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Oliy ta'lim muassasalari O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot strategiyasi, o'zbek xalqining buyuk davlat barpo etish borasidagi maqsad-muddaolari, milliy istiqlool g'oyalarini yoshlar qalbi va ongiga singdirishning ustuvor yo'nalishlariga xizmat qiladi. Bu borada jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olish, ta'lim-tarbiya, targ'ibot-tashviqotning samarali usul va vositalaridan oqilona foydalanish taqozo etiladi. Bunda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida oliy ta'lim muassasalari talabalar ongida milliy g'oya va milliy istiqlool mafkurasini shakllantirishi shlarini uzluksiz tarzda olib borish, oliy ta'lim muassasalari talabalarning yoshiga mos ravishda milliy istiqlool mafkurasini singdirishda differensial pedagogik-psixologik dasturlar yaratish, o'quv dasturlari, darslik va qo'llanmalarda milliy istiqlool mafkurasi g'oyalarini teran aks ettirish, universitetlarda mafkuraviy tarbiyani bugungi kun talablari darajasiga ko'tarish, pedagog kadrlarning mafkura borasidagi bilimlarini chuqurlashtirish muhim ahamiyatga egadir. Ma'naviyat - insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosini, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, umuman olganda unga qarashli jamiyki ijobiy xislatlari yig'indisidir.

Ma'naviyatning negizi va ma'no-mazmunini belgilaydigan asosiy xususiyatlardan biri bu insonning ruhiy poklanish, qalban ulg'ayishidir. Ma'naviyat" tushunchasi jamiyat hayotidagi g'oyaviy, mafkuraviy, ma'rifiy, madaniy, diniy va ahloqiy qarashlarni o'zida mujassam etadi.

Ta'lim-tarbiyaning har bir bosqichi, o'z navbatida, milliy g'oyalarni talaba yoshlar qalbi va ongiga singdirishning o'ziga xos omillarini nazarda tutadi. Oliy o'quv muassasalari talabalarini milliy-ma'naviy salohiyatini yanada rivojlantirishda dolzarb muommalardan

quyidagilarni misol qilib olishimiz mumkin:

- Oliy ta'lim muassasalarida yetarli malakaga ega bo'lgan pedagoglarning yetishmasligi;
- Zamonaviy axborot texnologiyalari vositasi yetarli bo'lmasligi;
- Oliy ta'lim muassasalari talabalarini muzeylar va qadimiy obidalarni o'rgangan holda ta'lim jarayonini olib borish.
- Ta'lim olishda kerakli sharoit yaratish.

Xulosa qilib aytganda, mustaqilligimiz tufayli biz nafaqat ijtimoiy hayotimizda, shu bilan barcha dunyoning ilg'or mamlakatlari fan va texnika yutuqlari, yuqori sifatli texnik vositalarni qo'llash, ularni yaratish imkoniga ega bo'lib bormoqdamiz. Ana shu maqsadni amalga oshirish, yurtimizda demokratik tamoyillarga asoslangan jamiyatni barpo etish ehtiyoji tug'ildi. Buning uchun bizga yot va begona g'oya tajovuziga qarshi tura oladigan, har tomonlama barkamol, komil insonlarni voyaga yetkazish, bu yo'lda g'oyaviy, mafkuraviy bo'shliq bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, mamlakatimizning yuksak taraqqiyotini ta'minlash uchun milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishni taqozo etdi. Oliy ta'lim muassasalari talaba yoshlarni ta'lim olishga, va kelajakda yetuk kadr bo'lib yetishishlari uchun milliy g'oya va milliy-ma'naviy dars soatlarini ko'paytirish, shu bilan bir qatorda talabalarni hunar o'rgatish uchun ajdodlar tajribasini yuqori sifat darajasida o'rgatishni tashkil qilish va bunday ishlar ishlab chiqarishning turli sohalarida yangi kompyuter texnologiyalarini rivojlantirish hamda yetuk mutaxassislar yetishtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Prezident Sh. M. Mirziyoyev «2018-2020 yillarda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha chora tadbirlari dasturi»
2. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" kitobi
3. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2001yil 18 yanvardagi "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar fani dasturlarini yaratish hamda ta'lim tizimiga joriy etish to'g'risida" gi. PF- 1331 – sonli Farmoyishi
4. "Milliy istiqlol g'oyasi" darsliklari.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi PQ-4391-son "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori.